



MA'RIFATPARVAR AJDODLARIMIZ MEROSI BIZ UCHUN IBRAT MAKTABIDIR

Panjiyeva Roxila

O'zDSMI FMF "Kutubxona-axborot
faoliyati" yo'nalishi 4- bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Sh. Tuychiyeva.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlar to'g'risida va hozirgi hayotimiz to'g'risida qisqacha ma'lumot beriladi

Kalit so'zlar: jadid, ma'rifatparvar, qatag'on, mustamlaka, Turkiston.

31-avgust — O'zbekistonda Qatag'on qurbanlarini yod etish kuni. Istiqlol yo'lida jon berganlar orasida yurtimiz ziyolilari — jadidlar ham bor. Jadidchilik (arabcha yangi) – XIX asr oxiri XX asrning birinchi choragida Markaziy Osiyo, Qrim, Kavkaz, Volgabo'yи hududlarida shakllangan, yangi zamonaviy mакtab, matbaa va taraqqiyotning ilg'or usul va yo'llarini yoqlab chiqqan ijtimoiy-ma'rifiy harakat. Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Sh.M.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda "Biz qadimiy va betakror tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalalarini dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim"

Shuning uchun bugungi kunda ularning nomi, zahmatkash mehnatlari, jasoratlari yoshlarinmiz uchun ibrat namunasi sifatida ulug'lanmoqda. Jadidchilikning poydevori, tamal toshi – usuli jadid maktabi edi. Zero, "yangi" ma'noni beruvchi "jadid" istilohi kirib kelishining o'zi aynan yangi usuldagagi maktablar bilan bog'liq. 1895–1910-yillar orasida Turkistonning Toshkent, Samarqand, Qo'qon kabi barcha yirik shaharlarida, qishloqlarida Buxoro amirligi va Xiva xonliklarida o'nlab "usuli saviya" maktablari ochildi. 1903-yillardan jadidchilik matbuoti uchun maxsus darsliklar tuzila boshlandi, lekin bu ishlar g'oyat qiyin kechdi. Biroq mustabid hukumat va mahalliy mutaassiblarning qarshiligidagi qaramay, jadidlarning sa'y-harakatlari bilan "usuli jadid" maktablarining tarmog'i kengayib bordi. Jadidchilikni shakllantirishda ko'plab millat ziyolilari faol qatnashgan. Jamiyatni o'rta asrchilik illatlari, madaniy qoloqlik va mustamlaka zulmidan, xurofotdan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi edi.

Turkistondagi jadidchilik harakatiga Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho'lpion, Pahlavon Niyoz Hoji, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda, Abdulla



Qodiriy, “Yosh buxoroliklar”, “Yosh xivaliklar” tashkiloti rahbarlari boshchilik qilishgan. Bu harakat o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra, XIX asr boshlarida mavjud bo‘lgan diniy islohotchilikdan farq qiladi. Ogahiy, Nodira, Ahmad Donish, Turdi, Maximur, Furqat, Muqimiy kabi ijodkorlar mansub bo‘lgan avlodning qarashlari asosan ma’rifatparvarlik tamoyiliga tayanar edi. Jadidlar esa nafaqat ma’rifat, balki jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilish, mavjud tartiblarni o‘zgartirish yo‘lidan bordilar.

Biz uchun eng qora kunlar — o’zbek ziylilarining ommaviy qatag‘on qilinganligi, millatimizning ildiziga urilgan eng og‘ir zarba edi. Biz eng zabardast, xalqparvar va ma’rifatchi olimlarimizni aynan o‘tgan asrning 20-40-yillarida yo‘qotdik, ya’ni ularni yo‘qotishdi, yo qamoqqa olishdi, yo surgun qilishdi yoki shunchaki “xalq dushmani” degan tuhmat bilan otib tashlashdi. Shukurki, bugun Vatanimiz ozod, ma’rifatparvar ota-bobolarimizning nomlari tiklandi. Endi yoshlarimiz bilan jadid bobolarimizni qanday maqsad bilan yashaganlarini o‘rganishimiz, chuqur tahlil qilib, ular mustaqillikka erishish yo‘lida jonlarini fido qilganlarining qadriga yetishimiz kerak. O’tgan yili Yoshlar ishlari agentligi jamoasi ma’rifatparvar jadid bobolarimiz hayoti va ijodi faoliyati haqida yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish uchun ma’lumot beruvchi “Jadidlar” to‘plamini katta mammuniyat bilan taqdim etishdi. O‘zini o’zbekistonlik deb hisoblagan har bir inson o‘qishi va uqishi muhim bo‘lgan – “Uyg‘onish” to‘plamini “Anorbooks” nashriyoti bilan hamkorlikda 20 ming nusxada nashrdan chiqarilib, respublikamizdagi barcha ta’lim muassasalari, tashkilot va idora kutubxonalariga bepul tarqatildi.

Kutubxonachilik sohasida ma’lum bir mavzu, shaxs va boshqalarga qaratilgan ma’lumotlar bazalarini yaratish eng muhim vazifalardan sanaladi. Bizning kutubxona tizimda ham ko‘plab mavzu, shaxslarga oid ma’lumotlar bazalari yaratilib kelinadi. Ularning hayot va ijodi, o‘z davrida ilm-fan rivojiga qo‘shgan zalvorli mehnatlari aks ettirilgan kitob, maqolalar jamlangan.





“Qayg‘urma! Eski davlating, eski sultanating, eski yigitlaring, eski arslonlaring hammasi bor, xech biri yo‘qolmamishdir”.

Fitrat

Foydalangan adabiyotlar:

1. Boltaboyev H. Jadidlar. Abdurauf Fitrat / Hamidulla Boltaboyev; Toshkent.- Yoshlar nashriyoti uyi, 2022.- 144 b.
2. Oltinbek O. Jadidlar. Abdulla Avloniy / Olim Oltinbek; Toshkent.- Yoshlar nashriyoti uyi, 2022.- 156 b.
3. Abdirashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo’ja Behbudiy / Zaynobidin Abdirashidov; Toshkent.- Yoshlar nashriyoti uyi, 2022.- 156 b.
4. Ruzmetov, B., Avezov, M., Babadjanov, J., Eshniyazova, Y., & Panjiyeva, N. (2023). Regional features of investment activeness in the Republic of Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 449, p. 04004). EDP Sciences.
5. Jadid gazetasi 2024-y. 1-yanvar № 1(1) 1 va 4-sahifalar. Iqbol Mirzo.

